

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING ROLI VA IMKONIYATLARI

(Iqtisodiy fanlarni o'qitish misolida)

Ataullayeva Gullola Nabiullayevna

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali

Iqtidorli talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatini

tashkil etish sektori muhandisi.

+998(91)-965-74-57

gullolaataullaeva@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada iqtisod fanlarini o'qitishda ta'lim sifatini oshirishda axborot texnologiyalarining roli va imkoniyatlari tadqiq etilgan. Ta'lim sifatini oshirishda axborot texnologiyalari beradigan imkoniyatlar, talabaga darslik orqali mavzuni yetkazishdan ko'ra axborot texnologiyalari vositalari orqali o'zlashtirish yuqori natija berishi umumta'lim, kasb-hunar maktablari, texnikum va oliy ta'lim muassasasi misolida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Axborot texnologiyasi, ta'lim sifati, innovatsiya, Power Point, Canva, integratsiya, elektron darslik, individuallashtirish, masofaviy ta'lim, modul tizimi.

РОЛЬ И ВОЗМОЖНОСТИ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

(На примере преподавания экономических предметов)

Атауллаева Гуллола Набиуллаевна

Шахрисабзский филиал Ташкентского химико-технологического института

Научно-исследовательская деятельность талантливых студентов

инженер сектора организации

+998(91)-965-74-57

gullolaataullaeva@gmail.com

Аннотация. В статье рассматриваются роль и возможности информационных технологий в повышении качества образования при преподавании экономических наук. Возможности, предоставляемые информационными технологиями в повышении качества образования, а также то, что обучение с помощью информационных технологий лучше, чем преподавание предмета через учебник, проанализировано на примере общеобразовательных, профессиональных училищ, техникумов и высших учебных заведений.

Ключевые слова. Информационная технология, качество образования, инновация, Power Point, Canva, интеграция, электронный учебник, индивидуализация, дистанционное обучение, модульная система.

THE ROLE AND OPPORTUNITIES OF INFORMATION TECHNOLOGY IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION

(In the example of teaching economic subjects)

Ataullayeva Gullola Nabiullaevna

Shahrisabz Branch of Tashkent Institute of Chemical Technology

Research activities of talented students organization sector engineer

+998(91)-965-74-57

gullolaataullaeva@gmail.com

Annotation. The article examines the role and possibilities of information technologies in improving the quality of education in the teaching of economic sciences. The opportunities provided by information technologies in improving the quality of education, and the fact that learning through the means of information technologies is better than teaching the subject through a textbook, has been analyzed on the example of general education, vocational schools, technical schools, and higher education institutions.

Key words. Information technology, quality of education, innovation, Power point, Canva, integration, electronic textbook, individualization, distance learning, the module system.

Kirish

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish shiddat bilan bormoqda. Respublikamizda barcha sohalarda axborot texnologiyalari kirib borib barcha jabhalarda rivojlanish sezilarli darajada bilinmoqda.

Mamlakatimizda keyingi o'n yillikda ta'lim sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Umumta'lim, kasb-hunar maktablari, texnikumlar, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish maqsadida texnik qayta qurollantirish, zamonaviy texnika va texnologiya bilan ta'minlash, har bir ta'lim muassasasida zamonaviy talablarga javob beradigan telekommunikatsiyali aloqa tizimlarini rivojlantirish, zamonaviy kompyuter sinflarini joriy etish, har bir sinfxona, auditoriyalarni AKT vositalari bilan jihozlash yo'lga qo'yildi. Albatta bularning joriy etilishi bejizga emas.

Adabiyotlar tahlili

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947- sonli Farmoniga 1-ilova "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida:

uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish;

umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish;

kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyori va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha

tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish;

ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish;

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish bo'yicha keng to'xtalib o'tilgan va talqin etilgan.

Buyuk Britaniyaning Xalqaro Psixoiqtimoiy reabilitatsiya jurnalida(2020) yosh olimlarmiz Murodova F.R., Murodova Z.R.larning nashr etilgan "Ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish" maqolasida Mamlakatda ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish yo'llari, metodlari xususida fikrlari bayon etilgan.

Sh. Shoyakubov, R. Ayupovlarning . Interfaol ta'lim usullari (Toshkent, «Tafakkur-bo'stoni» nashriyoti, 2012 yil)kitobida aynan ta'lim sifatini oshirishda interfaol ta'lim usullaridan foydalanish tadqiq etilgan va xulosalar berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada bugungi kunda umumta'lim va kasb-hunar maktablarida, texnikum va oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiy fanlarning o'qitilishi metodikasida o'zgarishlar kiritish orqali ta'lim sifatini yaxshilash tizimi muhokama qilinadi. Maqola asosida umumta'lim va kasb-hunar maktablarida, texnikum va oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiy fanlarni o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli, samarali foydalanish tavsiflanadi. Shu sohada dars o'tish metodikasida o'zgarishlar kiritish bo'yicha yondashishlar o'rganildi.


Tahlillar va natijalar

Ta'limda axborot texnologiyalarining kirib kelishi o'qituvchiga o'z ustida muntazam ishlashni, izlanishni, zamon bilan hamnafas yashashni o'rgatadi. Zamon,

yosh avlod ongi, dunyoqarashi izchillik bilan rivojlanmoqda. Bugungi kunda yosh avlodga ta'lim berish o'qituvchilardan ko'p mehnat sarf qilishni, zamonaviy axborot texnologiyalarini chuqur o'zlashtirishni, dars jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, eski uslubda dars o'tishdan voz kechish, noan'anaviy uslublarda dars mashg'ulotlarini o'tishni taqozo etadi. Bu albatta o'z-o'zidan ta'lim sifatini tez sur'atlarda oshishiga sabab bo'ladi.

Bugungi kunda iqtisodiy fanlarning o'qitilishi xoh u umumta'lim yoki kasb-hunar maktabi bo'lsin, xoh texnikum, xoh oliy ta'lim muassasasida bo'lsin. o'qitish metodikasida o'zgarishlar kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tajribamdan kelib chiqib shuni ayta olamanki, 45 daqiqalik yoki 80 daqiqalik darsda mavzuni o'tishda faqat nazariy emas, ba'zida amaliy, nazariy-amaliy dars sifatida o'tilishiga ahamiyat berilishi lozim.

Bilamizki, umumta'lim maktablarida 8-, 9-sinflarda Iqtisodiyot asoslari va 11-sinfda Tadbirkorlik asoslari fanlari o'qitiladi. Berilgan namunaviy o'quv dasturga asosan fanning ishchi dasturi ishlab chiqiladi. Ishchi dasturda berilgan soatlarni dars turi bo'yicha taqsimlash o'qituvchining pedagogik mahoratiga qaraydi. Yashirmaymizki, ba'zi bir maktablarda dars soatlari taqsimoti davrida Iqtisodiyot asoslari fani ikkinchi darajali fan sifatida geografiya yoki biologiya fani o'qituvchilari yillik yuklamasiga qo'shib beriladi va shunga ko'ra bu fan shunchaki nazariy o'tib ketiladi. Dasturda ko'rsatilgan soat asosida darslikda berilgan mavzuni yuzaki o'qitiladi. O'quvchilarning iqtisodiy savodxonligini oshirish maqsadida darslikda berilgan mavzu yuzasidan o'qituvchi har bir dars uchun ko'rgazmali, rasmlı, animatsion taqdimotlar tayyorlab o'tishi mumkin. Bunda masalan, "Bozor, tovar, narx" deb shunchaki aytib o'tmasdan aynan shu tushunchalarni ko'rgazmali holda rasmlı, animatsion ko'rinishda tushuntirilsa, o'quvchi ko'zi bilan ko'rishi orqali shu tushunchalar uning ongida, xotirasida muhrlanadi. Shu jumladan dars mobaynida uchraydigan iqtisodiy tushunchalarni nazariy an'anaviy usulda tushuntirishdan ko'ra, Power Point, Canva va shunga o'xshash dasturlarda tayyorlangan taqdimotlar, animatsion, rasmlı taqdimotlar orqali axborot texnologiyalari vositalari yordamida namoyish etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.



1-rasm Bozor,tovar,narx to'g'risida tushunchalar

Ko'rib turganimizdek, ko'rgazmalilik orqali o'tilgan dars va ta'lim sifati o'z-o'zidan oshadi, shu bilan birgalikda darsni kuzatgan o'quvchida fanga nisbatan qiziqish uyg'onadi.

Barchamizga ma'lumki, 2020-yilda mamlakatimizda COVID-19 virusining tarqalishi natijasida barcha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlarining onlayn masofaviy ta'lim tizimiga o'tkazilishi bir tomondan barcha professor-o'qituvchilarning o'zi bilmagan holda axborot texnologiyalaridan muntazam foydalanishiga sabab bo'ldi.

Ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasining asosli mexanizmlarini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish, o'qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish, masofaviy ta'lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish, yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida modul tizimidan foydalangan holda talabalar o'qishini jadallashtirish ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kirdi.[1]

Shu munosabat bilan har bir professor-o'qituvchi o'zining faniga va yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga oid axborotlarni muntazam o'rganib borib, faoliyati davomida

mohirona qo'llay bilish mahorati natijasidagina ta'lim-tarbiya jarayonini zamon talablari darajasida tashkil eta olishi bosqichiga yetdi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish va uni rivojlantirish mazkur jarayonga nisbatan tizimli, kompleks yondashuvni taqozo etadi. Bo'lajak kasb egalarining chuqur bilim va samarali faoliyat yurita olish mahoratiga ega bo'lishi o'qitiladigan fandan yetarli darajada nazariy hamda amaliy bilimlar va ko'nikmalarning berilishi, ta'lim jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish malakasining qay darajada shakllanganiga bog'liqdir. Shunga ko'ra, ta'lim jrayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirish va undan unumli foydalanish muhokamamizning asosini tashkil etadi.[2]

Texnikumlarda, oliy ta'lim muassasalarida bilamizki iqtisodiy fanlar maxsus (kasbiy) fanlar sifatida keng profilda o'qitiladi. Aynan tadqiqot uchun iqtisodiy fanlarni o'qitishda agar axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalana olsak, axborot texnologiyalarining roli va imkoniyatlari beqiyosdir. Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish nafaqat talabada balki professor-o'qituvchida ham katta imkoniyat hamda qulaylik olib keladi. Agar biz darsimizni zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan: videoprojektor, kompyuterlar, elektron doska, smart doska shuningdek, slaydli taqdimotlardan foydalangan holda tashkil qilsak, fan bo'yicha mavzuning asl mohiyatini ochib beradigan slaydlar orqali taqdimot ko'rinishida dars mashg'ulotlari olib borilsa, talabalarning tezda mavzuni o'zlashtirishiga, ketadigan vaqtning tejallishiga, eng oxirgi taraqqiyot axborotlaridan xabardor bo'lishiga mezon yaratiladi.

Mutimediya taqdimot – bugungi kunda axborot taqdim etishning yagona va eng zamonaviy shakli hisoblanadi. Bu matnli ma'lumotlar, rasmlar, slayd-shou, diktir jo'rligidagi ovoz bilan boyitilgan videorolik va animatsiya bo'lishi mumkin. Taqdimotning ma'lumot taqdim etishning boshqa shakllaridan asosiy farqi ularning mazmunan boyitilganligi va interfaolligidir, ya'ni belgilangan shaklda o'zgarishga moyilligi va foydalanuvchi faoliyatiga munosabatini bildirishidir. [3]

Bunday talqinda o'tiladigan dars orqali talabalarda mavzuga oid to'liq va aniq ma'lumot olish imkoniyatlari, voqeylikni vizual ko'rgan holda his etishi, mavzuga xos

bo'lgan barcha elementlarning ular ongida shakllanish holati kuzatiladi. Tajribamdan kelib chiqib shuni aytishim mumkinki, talabalarga u qanday soha bo'yicha tahsil olishidan qat'iy nazar doskaga mavzuni yozib, faqat an'anaviy usulda gapirib dars o'tadigan bo'lsak, tinglovchimiz tezda zerikadi va charchaydi. Agar dars mashg'uloti uchun tayyorlangan taqdimot ko'rgazmali, rasmlari, diagrammalari, animatsion yoki video rolikli bo'lsa, tinglovchi talaba beixtiyor mavzuga qaraydi, tinglaydi.

Inson shaxsining o'z-o'zini boshqarish va ta'lim jarayonlarni takomillashtirish borasida axborotlar texnologiyasi tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlar juda muhim hisoblanadi. Texnologiyalar takomillashib borgan sari o'qituvchining roli ta'lim jarayonini boshqarish bo'lib qoladi. Lekin bu holat o'qituvchining ta'limdagi o'rnini hech kamaytirmaydi va uni chetga surib chiqarmaydi. Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchi vazifasini tubdan o'zgartiradi. An'anaviy ta'limda o'qituvchining vazifasi axborot berish bo'lsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanganda bu vazifalarni kompyuter bajaradi, o'qituvchining asosiy vazifasi o'qituvchining anglash faoliyatini boshqarish, o'quv jarayonini rejalashtirish va nazorat qilish bo'lib qolaveradi. [3]

Har bir darsda tayyorlanadigan ko'rgazmalilik bir biridan farq qilmog'i lozim: Masalan, professor-o'qituvchi 40 soatli dars mashg'uloti uchun har xillikdan iborat bir-biriga o'xshamaydigan 20 ta taqdimot tayyorlashi lozim. Bu vositalar dars o'tish jarayonida qo'llaniladi. Shuningdek bo'lajak kasb egalariga axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish, tarmoqdan ma'lumotlarni yuklab olish, hisob siyosati bilan bog'liq dasturlarda ishlash, tarmoqlarga ulanish, elektron darsliklardan unumli foydalanishni o'rganish natijasida talabalar ko'pgina imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

Xulosa

Axborot texnologiyalari bo'yicha bilimga ega bo'lgan o'qituvchilar, professor-o'qituvchilar oldida keng imkoniyatlar ochiladi. Axborot texnologiyalaridan foydalana oladigan pedagog o'zining barcha ma'ruza darslarini ko'rgazmali qilib tashkil etishi mumkin. Zamonaviy axborotlashgan jamiyat kadrlar tayyorlash sifatida alohida talablar qo'yadi, ya'ni INTERNET tarmoqlari axborot resurslaridan maqsadli foydalana olishi,

mustaqil bilimlarni olishi jarayonida axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalari imkoniyatlarini joriy etishi talab etiladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ta'lim sifatini oshirishda axborot texnologiyalarining roli va imkoniyatlari ko'p, lekin shu o'rinda bu imkoniyatlarga ega bo'lishda bir qancha kamchiliklar ham uchrab turadi. Bular:

- Mamlakatimizda umumta'lim va kasb-hunar maktablarida, ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish uchun pedagog xodimlarning yetarli darajada tayyor emasligi;

- kompyuter texnologiyalari vositalarining qimmatligi (ya'ni ta'lim dargohlarida AKT vositalari bilan jihozlangan sinflar, auditoriyalarning kamligi);

- kompyuter o'rgatuvchi dasturlarning imkoniyatlari haqida tasavvurlarning kamligi (masalan buxgalterlarni tayyorlaydigan ta'lim muassasalarida dasturlarni qo'llash bo'yicha metodik ishlanmalarning kamligi:1C, UzASBO bo'yicha);

- soha bo'yicha mutaxassislarning yetishmasligi;

Mana shu yuqorida sanab o'tilgan kamchiliklarni bartaraf etilsa albatta axborot texnologiyalari beradigan imkoniyatlarga ega bo'linadi. Imkoniyatlarni egallash har bir soha vakilining o'ziga, kasbiy salohiyatiga, ijtimoiy holatiga bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947- sonli Farmoni.

- 2.Murodova F.R., Murodova Z.R. Ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish. Xalqaro Psixoiijtimoiy reabilitatsiya jurnali,Buyuk Britaniya.-2020.- B.3110-3116

3. Sh. Shoyakubov, R. Ayupov. Interfaol ta'lim usullari. Toshkent, «Tafakkur-bo'stoni» nashriyoti, 2012 yil.

- 4.www.ZiyoNet.uz

- 5.www.tfi.uz

6.www.ref.uz